



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2024- yil
yanvar- iyun



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, Toshkent shahrida jami 19 288,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



2024- yil 1-iyul holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, soni birlikda



Yillar kesimida soni



3 295

Bino va inshootlar qurish


705

Fuqarolik obyektlarini qurish

2 726

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 97,3 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 49,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 98,4 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 10,5 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,5 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 40,5 foiz ulushni va 94,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2023- y.	01.07.2024- y.	
Toshkent shahar	6 911	6 726	97,3

tumanlar:

Bektemir	171	181	105,8
Mirzo Ulug'bek	914	893	97,7
Mirobod	614	582	94,8
Olmazor	503	496	98,6
Sergeli	425	431	101,4
Uchtepa	428	364	85,0
Chilonzor	819	779	95,1
Shayxontohur	514	489	95,1
Yunusobod	825	795	96,4
Yakkasaroy	717	689	96,1
Yangiyul	228	280	122,8
Yashnobod	753	747	99,2



2024- yil 1-iyun holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Mirzo Ulug'bek (13,3)



Yunusobod (11,8)



Chilonzor (11,6)



Qurilish ishlari 2024- yil yanvar- iyun oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Toshkent shahar tumanlar:	19 288,6	6 548,2	11 513,2	1 227,2
Bektemir	567,7	178,9	355,0	33,8
Mirzo Ulug'bek	2 159,0	562,2	1 444,3	152,5
Mirobod	2 667,0	900,7	1 670,1	96,2
Olmazor	1 419,0	502,2	808,6	108,2
Sergeli	713,3	134,9	472,7	105,7
Uchtepa	656,0	154,9	382,4	118,7
Chilonzor	1 714,0	269,5	1 349,3	95,2
Shayxontohur	1 561,9	907,8	554,9	99,2
Yunusobod	3 361,3	2 111,1	1 124,7	125,5
Yakkasaroy	1 960,4	401,8	1 467,0	91,6
Yangihayot	887,1	204,6	593,5	89,0
Yashnobod	1 622,0	219,5	1 290,8	111,7


2024- yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 548,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 167,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 33,9 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2024- yil yanvar-iyun oylari uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 62,8 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 394,0 %) Shayxontohur tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 58,1 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 232,9 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,7 %i to'g'ri kelib, 2023-yil yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 9,6 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,7 % ni tashkil etgan holda 11 513,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



59,7

2024- yil yanvar-iyun

69,3

2023- yil yanvar-iyun



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush hududdagi ko'rsatkichi Yashnobod tumanida (1 290,8 mlrd. so'm yoki ulushi 79,6 %), Chilonzor tumanida (1 349,3 mlrd. so'm yoki ulushi 78,7 %) va Yakkasaroy tumanida (1 467,0 mlrd. so'm yoki ulushi 74,8 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 6,4 %ni tashkil etdi yoki 1 227,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 83,2 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 539,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 18 749,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,8 % va 97,2 % ni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-iyun



Davlat mulki

Nodavlat mulki

2024-yil yanvar-iyun



Davlat mulki

Nodavlat mulki

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2024-yil yanvar-iyun oylarida



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **61,7 %** i yoki **11 900,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

42,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **5 021,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **42,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **6 151,7** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,7 %** ni tashkil etdi.

51,7 %

6,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **727,5** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **6,1 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun oylarida


	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Toshkent shahar	19 288,6	110,0	100,0
tumanlar:			
Bektemir	567,7	101,1	2,9
Mirzo Ulug‘bek	2 159,0	112,1	11,2
Mirobod	2 667,0	101,0	13,8
Olmazor	1 419,0	112,6	7,4
Sergeli	713,3	100,3	3,7
Uchtepa	656,0	103,7	3,4
Chilonzor	1 714,0	100,3	8,9
Shayxontohur	1 561,9	119,4	8,1
Yunusobod	3 361,3	140,9	17,4
Yakkasaroy	1 960,4	100,1	10,2
Yangihayot	887,1	101,9	4,6
Yashnobod	1 622,0	102,8	8,4



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,9 % ni tashkil etib, 2023- yil yanvar-iyun ko'rsatkichiga nisbatan 5,1 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichiga nisbatan 4,0 % punktga kamayib, 61,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichiga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 12,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 39,1 % ni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-iyungacha nisbatan 9,7 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 60,9 % (9,7 % punktga kamayish)ni tashkil etdi.

ulushi % da




2023- yil
yanvar-iyun



2024- yil
yanvar-iyun

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi va 30,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 69,7 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Toshkent shahar	19 288,6	13 473,3	3 036,8	2 778,5
tumanlar:				
Bektemir	567,7	392,3	83,8	91,6
Mirzo Ulug'bek	2 159,0	1539,8	341,9	277,3
Mirobod	2 667,0	1917,6	413,7	335,7
Olmazor	1 419,0	969,2	253,1	196,7
Sergeli	713,3	475,4	112,4	125,5
Uchtepa	656,0	442,6	118,3	95,1
Chilonzor	1 714,0	1229,9	263,1	221,0
Shayxontohur	1 561,9	1089,5	205,4	267,0
Yunusobod	3 361,3	2360,8	487,0	513,5
Yakkasaroy	1 960,4	1327,4	343,2	289,8
Yangihayot	887,1	610,6	128,5	148,0
Yashnobod	1 622,0	1118,2	286,4	217,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun



ulushi % da



2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani (3 361,3 mlrd.so'm), Mirobod tumani (2 667,0 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek tumani (2 159,0 mlrd.so'm), Yakkasaroy tumani (1 960,4 mlrd.so'm), ga to'g'ri keladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)